

## PSIXOLOGIYA FANINING ASOSIY METODLARI

*Nurulloeva Manija Qurbon qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim*

*yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Erniyozova Sohiba Ochil qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim*

*yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Özbek tili va adabiyot kafedrasi o'qituvchi.*

*Tel: +998888109707*

*Tel: +998934261581*

*[manijanurulloeva29@gmail.com](mailto:manijanurulloeva29@gmail.com)*

*[Sohibaerniyozova@gmail.com](mailto:Sohibaerniyozova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiya fanini turli xil metodlari kuzatish metodi, so'roq metodi, psixologik testlar metodi, psixologik tajriba yoki eksperiment metodi, modellashtirish metodini keng yoritib bergan. Psixologiyaning asosiy metodologik tamoyillari, sohalari, differentsiatsiya va integratsiya jarayoni, boshqa fanlar bilan aloqalari, psixologik tadqiqotlar, psixologik metodlarni guruhlariga ajratish, qiyosiy metod longityud metodidan va kuzatish tabiiy tajribadan farq qilinishi haqida.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, metod, so'roq, test, guruh, suhbat, ijtimoiy, shaxs, muloqot, aql, ob'ekt, tajriba.

**Annotation:** In this article, the various methods of the science of psychology, the method of observation, the method of questioning, the method of psychological tests, the method of psychological experiment or experiment, the method of modeling are widely explained. , about the division of psychological methods into groups, the difference between the comparative method and the longitudinal method, and the difference between observation and natural experience.

**Key words:** Psychology, method, question, test, group, conversation, social, person, communication, mind, object, experience.

**Аннотация:** В этой статье широко объясняются различные методы науки психологии, метод наблюдения, метод опроса, метод психологических тестов, метод психологического эксперимента или эксперимента, метод моделирования, о разделении. психологические методы на группы, разницу между

сравнительным методом и лонгитюдным методом, а также разницу между наблюдением и естественным опытом.

**Ключевые слова:** Психология, метод, вопрос, тест, группа, беседа, социальное, человек, общение, разум, объект, опыт.

**К и р и ш:** Psixologiyaning asosiy metodlari aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi va validliligiga bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonch va mukammallarini saqlab qolgan.

**Asosiy qism:** Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlik dajasini aniqlash, qolaversa, tomangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam berack Jadvalda keltirilgan metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqkan shaxs u yoki bu psixik jarayon, holat yoki shaxs xususiyatlari to'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana tahlil qilinadi va maxsus tarzda isimalishi mumkin. Psixologiya fanida inson psixikasini tadqiqot qilish metodlarining turlicha tasnifi mavjud. B.G.Ananyev psixikani o'rganish metodlarini to'rtta guruhga ajratib bergan. Bu to'rtta guruh metodlar M.Ulug'bek nomli O'zbekiston.

Milliy Universiteti, Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Farg'ona Davlat Universiteti kabi psixolog mutaxassis tayyorlaydigan oliygohlarda mufassal o'rganiladi. Biz mazkur mavzuimizda har bir insonning o'zini va atrofida qilarni bilib olishiga imkon beradigan, murakkab bo'lmagan, qo'llash shartlari sharoitga mos bo'lgan va umum qabul qilingan metodlarni keltirdik. Asosiy metodlar bular kuzatish metodi, so'roq metodi, testlar metodi va modellashtirish.

Tamoyillar - tadqiq etilayotgan ob'ektni mazmunli bayon etish, tajribama'lumotlariga ega bo'lish muolajalarini rejalashtirish, ularni umumlashtirib, izohlash, shuningdek, ilmiy farazlarni ilgari surib, ularni tekshirish imkonini beradi. Iidentifikatsiya - ijtimoiylashtirishning muhim mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy fatsilitatsiya – bu ba'zi odamlarning boshqalarning faoliyatiga ular oldida yoki bevosita ishtirokida amalga oshiriluvchi ijobiy rag'batlantiruvchi ta'siri. Sotsiometriya – o'zaro

munosabatlar va psixologik kelishuvchanlikning tuzilishini aniqlash maqsadida guruhdagi shaxslararo munosabatlarni psixologik tadqiq etish metodi.

1. Umumiy psixologiya – normal odamlar xarakterlarini o'rganishga bog'liq bo'lgan asosiy fundament vazifasini o'tovchi qonun – qoidalar, teoralar va prinsiplarni o'rganadi;

2. Psixopatologiya – Ruhiya kasalliklarning kelib chiqish sababini, tasir darajasini o'rganuvchi va uni davolash yo'llarini izlovchi psixologiya bo'limidir.

3. Ijtimoiy psixologiya – kishilarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini, guruhiy tavsifni, shaxsning ruxiy faoliyati va xulq – atvorini, ijtimoiy psixologik qonuniyatlarni, holatlar, hodisalar, ularning qiziqishlarini, nimani yoqtirishi va yoqtirmasligini kabilarni o'rganuvchi va tushuntirib beruvchi psixologiya sohasidir

4. Ekspirimental psixologiya – psixik jarayonlar va hodisalarni ilmiy metodlar yordamida laboratoriyalarda ularni o'rganuvchi psixologiya bo'limi. Bu ekspirimentlar asosan hayvonlarda va qushlarda, so'ngra ixtiyorga qarab odamlarda amalga oshiriladi.

5. Fizologik psixologiya – psixologiyaning bu bo'limi hatti harakatlarning fizologik va biologik asoslarini o'rganadi. Atrof muhit, tananing fizologik tuzilishi, miya ishi, nerv sistemalari va ularning ishlash faoliyati va shunga oxshash boshqalar bu bo'limning asosiy predmetlaridir.

6. Para – psixologiya – qo'shimcha sezgi turlari, qayta tug'ilish asoslari, telepatiya va o'zga sayyoraliklar haqidagi muomolarga javob izlaydi

7. Geo – psixologiya – landshaft, tuproq, havo o'zgarishlarining tabiatga aloqador tamonlarini o'rganuvchi psixologiya bo'limi.

8. Rivojlanish psixologiyasi – psixologiyaning bu bo'limi induvid tug'ilganidan boshlab to o'guniga qadar davom etadigan jarayonlarda yuzaga keladigan o'zgarishlarni organadi. Psixologiyaning bu bo'limi o'z navbatida bolalar psixologiyasi, o'rta yoshlilar psixologiyasi va katta yoshlilar psixologiyasi kabi tarmoqlarga bo'linib ketadi.

**METODLAR. Kuzatish metodi.** Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. O'z-o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir. Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir.

Masalan, bayram arafasida aholining qayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo'lmaydi, kuzatuv obyekti ham qat'iy bo'lishi shart emas. Yoki dars Jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. Standartlashtirilgan kuzatuv esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan,

kuzatuv olib boriladi. Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarning faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhly fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksiya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan Jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi.

**So'rov metodi.** So'rov metodi psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin So'rov metodi psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi. So'rov metodlari bular suhbat, intervyu, anketa metodlaridir. Ushbu metodlar ijtimoiy psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlar qatoriga kiradi. So'rov metodi so'rov, intervyu, muhim shaxsiy sifat, maxsus tayyorgarlik, roli u'yinlar meludi yordamida maxsus tayyorgarlik, anketa so'rovi, ochig anketa, yopiq anketa, respondentdan fikrini erkin bayon etishni talab etadi, mosini tanlaydi, savollarga javoblar oldindan beriladi shular asosida o'tkaziladi.

**Psixologik testlar.** Testlar psixologiyaning maxsus usulidir. Ular qisqa sinov usuli bo'lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodsa qisqa muddat AR ichida bir texnik vosita sifatida uning yordamida tekshiriladi. Testlar asrimizning boshida kashf qilingan bo'lib, ular 20-30 yillarga hayotga, amaliyotga shunchalik shiddat bilan kirib keladiki, natijada maxsus soha-psixometrika kirib keldiki, natijada maxsus soxa-psixometrika yuzaga keldi.

- 1. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlar.
- 2. Muloqot sistemasidagi o'rnini aniqlash.
- 3. Aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar.

Testlarni qo'llashni qulaylik tomoni shundaki bir test yordamida ma'lum ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni umumiy deb bo'lmaydi., chunki u yoki bu test muayyan turdagi ob'ektda sinalgan bo'lsa, uni shunga o'xshash ob'ektlardagina qo'lash mumkin. Xolos, qolaversa undan olingan ma'lumotlar nisbiy Arxususiyat kasb etadi.

**Psixologik tajriba yoki eksperiment metodi.** Ushbu metod turli yoshdagi (chaqaloqlik, bolalik, o'quvchilik, olspirinlik, yetuklik, keksalik) odamlar psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Metodning ilmiy asosi 1910 yilda F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilar esperimentdan bexabar bo'lishi, tadqiqot dasturi shart-sharoit bilan muvofiqlashtirilishi hamda kundalik hayot tarzidan chetga og'ishlar bo'lmasligi lozimdir. Laboratoriya (klini-ka) metodi ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo'l - yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari (dispoleylar), qurilmalar, moslama va jihozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llanadi. Ko'pincha detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, xronoreleksometr, lyuksmetr, anomaloskop, tahistoskop, audiometr, esteziomet elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi. ? Eksperiment metodi ko'pincha odamlar psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarni shakllantirish, nutq o'sishini tekshirish, favquloddagi holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish, bilish jarayonlari, shaxsning his tuyg'ulari, xarakteri ya tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emosional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko tarish) ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, hissiy-irodaviy, asabiy zo'riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

**Modellashtirish metodi.** Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi. Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. matematik texnik mantiqiy kibernetik tarzida bo'lishi mumkin. Hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmalashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, odamning fikrlash operatsiyalari bilan EXM larning ishlash prinsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu - zakovati chegarasini

yanada kengaytirish istiqbolini beradi. Mantiqiy modellar yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplan bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber-Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to'plangan ma'lumotlar tahlilini misol qilish mumkin. Limamam deixoeloyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o'ziga xos metodlari bor. Bu borada xorij, Rossiya va o'zbek psixologlar modifikasiyalashgan va modifikasiyalashmagan metodlarni taklif etadilar. Psixologiyada qo'llanilgan metodlarni qo'llash shartlarini o'rganish va qo'llay olish uchun D. Burlachukning "Psixodiagnostika".

**Xulosa.** Psixologiya fanining eng muhim metodlari: kuzatish, test, so'rov, tajriba, modellashtirish bo'lib, bu metodlar orqali shaxsning turli vaziyatlarda xulqini diagnostika qilish mumkin. Hozirgi kunda psixologiya fanida tadbqiqiy va amaliy sohalar hamda psixologiyaning maxsus tarmoqlaridan - yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, iqtisodiy psixologiya, yuridik psixologiya, sanoat va ishlab chiqarish psixologiyasi, boshqaruv, psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, Psixodiagnostika va differensial psixologiyalar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng qo'llanilib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. 1-qism. T.:TDIU, 2005. – 208 b.
2. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya / Perevs angl. - SPb.: Piter, 1999. - 688
3. Andreyeva G.M. Aktualnye problemy sotsialnoy psixologii. M. 1998.
4. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya M, 1980.
5. Karimova V.M., Akramova F. Psixologiya T 2000.
6. Karimova V.M Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T1999
7. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya, Sankt-Peterburg, 1997.
8. Metodi sotsialnoy psixologii. ye.E.Kuzmin tarx, L1997
9. Sokolova ye.T. Proyektivnye metody issledovaniya lichnosti. M,1980
10. Sotsialnaya psixologiya. A.V.Petrovskiy tarx. M,1987.
11. www.google.com internet tarmog'i